

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

RO'YXATGA OLINDI
№ ym – 343 - 5A340606 – 2.08
« 1 » Iyul **2003 y**

«TASDIQLANDI»
O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi

« 8 » Iyul **2003 y**

**INVESTITsIYa DASTURLARI
MONITORINGI
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 -«Biznes va boshqaruv»
ta'lim sohasidagi 5A3406012 - «Kapital qo'yilmalarni
moliyalashtirish va ularning monitoringe!»
magistratura mutaxassisligi uchun**

Tuzuvchilar: dots. Jo'raev A. S.
dots. Omonov X. E.

Taqrizchilar: dots. Toshmurotov Sh.
M.
k.o'q. Mamatov B. S

Davlat investitsiya dasturi investitsiya siyosatini amalga oshirishda muhim vosita sifatida maydonga chiqsa, investitsiya dasturlari monitoringa uning samarali ijrosini ta'minlashning asosiy omilidir. Investitsiya dasturlari monitoringa dasturga kiritilgan va amalga oshiriladigan loyihalarning samaradorligini oshirishga ta'sir ko'rsatish orqali ustuvor sohalarning rivojlanishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. «Investitsiya dasturlari monitoringa» fanining bosh maqsadi respublikamizda strategii mahsulotlarni ishlab chiqarishga investitsiyalarni yo'naltirish, ularni moliyalashtirish va kreditlash tartibi jarayonining dasturda ko'zda tutilganidek amalga oshirilishini ta'minlash uchun olib boriladigan monitoringning ahamiyati va zaruriyatini magistrantlarga o'rgatish hisoblanadi. bayonnoma)

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlariga ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

Если государственная инвестиционная программа выступает как важное средство при осуществлении инвестиционной политики, мониторинг инвестиционных программ имеет большое значение в обеспечении его эффективного исполнения. Мониторинг инвестиционных программ имеет важное место в обеспечении развития приоритетных отраслей через влияние на повышение эффективности осуществляемых проектов. Основной целью предмета «Мониторинг инвестиционных программ» является изучение магистрантами значения и необходимости мониторинга, осуществляемого для направления инвестиций на производство стратегических продуктов, порядка, а также процесса их финансирования и кредитования.

If the state investment program is important in the investment policy then the monitoring of investment program has a great meaning in realizing the effective execution. The monitoring of investment projects has an important place in providing the development priority areas through impact on increasing projects effectiveness, included in investment program. The main aim of subject "Monitoring the investment programs" is learning by the masters the meaning and necessity of monitoring making providing and realizing the investment directions to production the strategic products, order and process of their financing.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli

1. SO'Z BOSHI

Investitsiya dasturlarini samarali va muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan ular yuzasidan olib boriladigan monitoring jarayonlari sifatiga bog'liq bo'ladi. Investitsiya dasturlari monitoringi iqtisodiyotning turli tarmoqlariga tegishli bo'lgan va davlat investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarning tarmoqlar hamda hududlarda amalga oshirilishi natijasida ularning rivojlanishiga bevosita ta'sirini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Monitoring mazkur loyihalarni samaradorligini ta'minlash maqsadida ular ustidan olib boriladigan kuzatuv, tekshiruv, tahlil, va nazorat ishlarini qamrab oladi.

O'quv fanining maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanishi

«Investitsiyalar dasturlari monitoringi» fanini o'qitishning bosh maqsadi magistrantlarga O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya dasturlari yuzasidan olib boriladigan monitoring jarayonlarini o'rgatish hisoblanadi. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda fanning asosiy vazifasi investitsiyalar dasturlari monitoringining iqtisodiy ahamiyatini, monitoringni olib borish bosqichlarini, uning turlarini o'rgatish hisoblanadi.

Mazkur fan «Davlat investitsiya siyosati», «Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish», «Xalkaro investitsiyalar va ularning moliyaviy ta'minoti», «Davlat investitsiya dasturi va uni shakllantirish», «Investitsiya loyihalari monitoringi»,

«Investitsiya loyiharini moliyalashtirish mexanizmi», «Xalqaro valyuta operatsiyalari va hisob-kitoblar», «Bank menejmenti va marketingi», «Xalqaro investitsiya bozori» kabi fanlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, magistrantlardan ushbu fanlarni ham o'zlashtirishlari talab etiladi.

O'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga talablar

Ushbu fanni o'rganish jarayonida magistrantlar tegishli bilimga, ko'nikma va mahoratlariga ega bo'lishlari lozim.

Magistrantlar umumnazariy fanlardan olgan bilimlari bilan bir katorda investitsiya dasturlarini shakllantirish va ularni amalga oshirish, ularning monitoringi bilan bevosita bog'liq bo'lgan huquqiy-me'yoriy hujjatlardan xabardor bo'lishlari lozim.

Magistrantlar «Investitsiya dasturlari monitoringi» o'quv fani bo'yicha quyidagi masalalarni bilishlari lozim:

- investitsiya dasturlarining maqsadi va vazifalarini;
- investitsiya dasturlarini shakllantirish tartibi va muddatlarini;
- investitsiya dasturlariga kiritiladigan loyihalarni shakllantirish bosqichlarini;
- investitsiya dasturlarida ko'zda tutilgan kapital qurilishni moliyalashtirish tartiblarini;
- investitsiya dasturlariga kiritilgan loyihalarni amalga oshirishda axborot bankini tashkil etish jarayonini;
- investitsiya dasturlari monitoringini olib borish tartibini;
- investitsiya dasturlari monitoringini ishlab chiqishda ishtirok etuvchi muassasalarning vazifalarini.

Magistrantlar mazkur o'quv fani bo'yicha yuqorida ta'kidlab o'tilganlar bo'yicha tasavvurga zga bo'lishlari, bilimlarini amaliyotda qo'llay olishlari hamda yangiliklarni o'zlashtira bilishlari kerak. Shuningdek, ular kompyuterlardan va boshqa zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish asoslarini o'rgatuvchi fanlarni ham o'zlashtirishlari kerak.

O'qitish jarayonida nazariy bilim bilan amaliyotni solishtirish usullarini, magistrantlarning mustaqilligini ta'minlovchi o'quv jarayonini, bilim va ilmga bo'lgan qiziqishini tashkil qilish bilan birga ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratib berish kerak.

«Investitsiya dasturlari monitoringi» fanidan olgan bilimlar magistrantlarga oliy o'quv yurtini tamomlagandan so'ng, ularning ish faoliyatlarida uchraydigan amaliy masalalarni echishda hamda zamonaviy iqtisodiyotga doyr adabiyotlarni o'rganib, malakalarini oshirishlarida ham qo'l keladi.

Amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlar miqdoriga minimal talablar

Ishchi o'quv dasturida keltirilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlar mavzulari yuzasidan magistrant tegishli mavzular bo'yicha konspektlar oladi, referatlar va mustaqil ishlar

tayyorlaydi hamda amaliyot o'qituvchisi nazoratida ular yuzasidan og'zaki suhbatdan o'tadilar. Ushbu talablar amaliy mashg'ulotlar mavzularida kursiv bilan ko'rsatilgan savollar bo'yicha magistrantlarning dare jarayonini to'liq o'zlashtirishlarini belgilaydi.

Mashg'ulotlar hajmi bo'yicha tavsiyalar

O'quv rejasi bo'yicha mazkur fanga jami 81, shu jumladan, 36-ma'ruza, 18-amaliy, 27-mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan.

O'quv jarayonida rejaga muvofik oldin ma'ruza, keyin amaliy mashg'ulot o'tkaziladi. O'tilgan mavzular bo'yicha magistrantlarning mustaqil o'rganishi uchun alohida mavzular bo'yicha uy vazifalari beriladi. Magistrantlarning olgan bilimlarini aniqlashda og'zaki yoki yozma usullar qo'llaniladi.

Talabalar bilimini baholash uchun o'tkaziladigan vazorat tadbirlari miqdori

Ushbu fan bo'yicha talabalar bilimlari darajasi o'quv reyting tizimi bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy baholashda yig'ilgan ballar asosida belgilanadi.

Fanni o'qitishda har bir semestrda ikki marotaba joriy, ikki marotaba oraliq va bir marotaba yakuniy baholash amalga oshiriladi. Agar fan bir necha semestr davomida o'qitilishi ko'zda tutilsa, oldingi semestrlar nihoyasida yakuniy baholash og'zaki yoki test usulida, oxirgi semestrda esa faqat yozma ish usulida amalga oshiriladi.

Kompyuter, informatsiy va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash

Kuyidagilar «Investitsiya dasturlari monitoringi» fanini o'qitishning kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarining tarkibiy qismlari hisoblanadi:

- o'quv maqsadlari va vazifalar katalogini ishlab chiqish;
- o'quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga ko'chirish;
- tarqatma materiallardan, testlar to'plamidan, slayd, kompyuter dasturlaridan foydalanish;
- rejalashtirilgan maqsadlarning bajarilishini baholash.
Magistrantlarga fanni zamonaviy usullarda o'rgatish, ularning
- mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish hamda olgan bilimni mustaqil ravishda baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi:
- magistrantlarni oldindan tarqatma materiallar bilan ta'minlashga erishish;
- magistrantlarga o'z bilimni o'zi baholashi uchun sharoitni yaratib berish;
- magistrantlarning bilimni tayanch iboralar asosida baholashni joriy qilish;
- magistrantlarni kichik guruhlariga bo'lib, o'qituvchilar rahbarligida mustaqil bilim olishga o'rgatish va h .k.

Bu fanni o'qitishda investitsiya dasturlari monitoringiga doyr qonunlar, hukumat qarorlari, investitsiya dasturlari monitoringi bo'yicha tavsiyalar va yo'riqnomalar, nizomlar va investitsiya loyihalarini baholashning YuNIDO uslubiyoti va kompyuter dasturlaridan, yangi kompyuter texnologiyalardan, tarqatma materiallardan, testlar to'plamidan ham foydalanish mumkin.

Ish dasturini tuzishga oid uslubiy tavsiyalar

Mazkur fan "Kapital qo'yimalarni moliyalashtirish va ularning monitoringi» mutaxassisligiga ikkinchi semestrda o'tilishi mo'ljallangan. Bu fanni o'qitishda investitsiya dasturlari monitoringiga doyr qonun hujjatlari va kompyuter dasturlaridan ham foydalanish mumkin.

«Investitsiya dasturlari monitoringi» fani ma'ruza va amaliy mashg'ulot shaklida auditoriyada o'rgatiladi. Magistrantlarning o'quv jarayonida auditoriyada olgan nazariy

bilimlarini o'qituvchilar hamda belgilangan hay'at a'zolari tomonidan reyting usulida baholash tavsiya etiladi.

2. FAN DASTURI

«Investitsiya dasturlari monitoringi» fani bo'yicha ma'ruza mavzulari Fanning predmeti va mazmuni. O'zbekiston davlat investitsiya dasturi «Investitsiya dasturlari monitoringi» fanining predmeti va vazifalari. Fanning tarkibiy tuzilishi va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi. Davlat investitsiya dasturi - mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning, uning istiqbolini belgilashning tarkibiy qismi sifatida. Investitsiya dasturining matn sadi va vazifalari.

O'zbekiston Respublikasi davlat investitsiya dasturini shakllantirish tartibi

Davlat investitsiya dasturini ishlab chiqish jarayoni va o'ziga xos jihatlari. Investitsiya dasturini shakllantirish tartibi va muddatlari. Investitsiya dasturida markazlashgan moliyaviy mablag'larning tarkibi va tutgan o'rni. Investitsiya dasturida markazlashmagan investitsiyalarning tarkibi va tutgan o'rni.

Davlat investitsiya dasturiga kiritiladigan loyihalarni shakllantirish jarayoni

Davlat investitsiya dasturiga investitsion loyihalarni kiritish jarayoni. Investitsion loyihalar tsikli. Loyiha tsiklining maqsadlari. Loyihani shakllantirish bosqichlari: loyihani aniqlash va tayyorlash, boshqarish va tanlash, tasdiqlash va moliyalashtirish manbalari.

Uzbekiston Respublikasi investitsiya dasturida ko'zda tutilgan kapital qurilishni moliyalashtirish va kreditlash tartibi

Markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar hisobiga qurilishlarning manzilli ro'yxatini shakllantirish. Markazlashgan moliyaviy mablag'lar va boshqa mablag'lar hisobiga moliyalashtirish va kreditlash. Kapital qurilishda o'zlashtirish jarayoni.

O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni amalga oshirishda axborot bankini tashkil etish jarayoni

Investitsiya loyihalari bo'yicha ma'lumotlar bazasini tashkil etishning zaruriyati, maqsadi va vazifalari. Monitoring ma'lumotlar bankining shakllanish asoslari. Ma'lumotlar bazasini tasdiqlash jarayoni. Davlat investitsiya dasturi jadvalari shakllari. Loyihalar ro'yxatidagi axborotlarni mukammal o'rganish.

Davlat investitsiya dasturi monitoringini amalga oshirishda ishtirok etuvchi vazirlik va muassasalarning vazifalari

Davlat investitsiya dasturi monitoringini nazorat qiluvchi organlar. Davlat investitsiya dasturini moliyalashtirishda ishtirok etuvchi vazirlik va muassasalarning vazifalari. Davlat investitsiya dasturining amalga oshirilishini nazorat etuvchi muassasalar faoliyati.

O'zbekiston Respublikasi davlat investitsiya dasturi monitoringini olib borish tartibi va loyihalar monitoringi jarayoni

Davlat investitsiya dasturining balansligini ta'minlash. Kapital qo'yilmalar prognozi. Ustav investitsiya takliflari ro'yxati. Dasturni amalga oshirish va monitoringini olib borish tartiblari. Loyihalarni baholash va nazorat qilish mezonlari. Davlat investitsiya dasturi kodlari va sektorlarini turkumlash. Davlat investitsiya dasturi jadvalari shakllari. Monitoringni amalga oshirish bosqichlari. Monitoring natijalarini ko'rib chikish tartibi va tegishli chora-tadbirlar ishlab chikish

3. AMALIY (SEMINAR) MASHG'ULOTLAR MAVZULARINING TAXMINIY RO'YXATI

O'zbekiston Davlat investitsiya dasturi

Davlat investitsiya dasturi - mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning, istiqbolini belgilashning tarkibiy qismi sifatida. Investitsiya dasturining maqsadi va vazifalari.

O'zbekiston Respublikasi davlat investitsiya dasturini shakllantirish tartibi

Davlat investitsiya dasturini ishlab chiqish jarayoni va o'ziga xos jihatlari. Investitsiya dasturini shakllantirish tartibi va muddatlari. Investitsiya dasturida markazlashgan moliyaviy mablag'larning tarkibi va tutgan o'rni. Investitsiya dasturida markazlashmagan investitsiyalarning tarkibi va tutgan o'rni.

Davlat investitsiya dasturiga kiritiladigan loyihalarni shakllantirish jarayoni

Davlat investitsiya dasturiga investitsion loyihalarni kiritish jarayoni.

Investitsion loyihalar tsikli. Loyiha tsiklining maqsadlari. Loyihani shakllantirish bosqichlari: loyihani aniqlash va tayyorlash, baholash, tanlash, tasdiqlash va moliyalashtirish manbalari.

O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturida ko'zda tutilgan kapital qurilishni moliyalashtirish va kreditlash tartibi

Markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar hisobiga qurilishlarning manzilli ro'yxatini shakllantirish. Markazlashgan moliyaviy mablag'lar va boshqa mablag'lar hisobiga moliyalashtirish va kreditlash. Kapital qurilishda hisob-kitob jarayoni.

Davlat investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni amalga oshirishda axborot bankini tashkil etish jarayoni

Investitsiya loyihalari bo'yicha ma'lumotlar bazasini tashkil etishning zaruriyati, maqsadi va vazifalari. Monitoring ma'lumotlar bankining shakllanish asoslari. Ma'lumotlar bazasini tasdiqlash jarayoni. Davlat investitsiya dasturi jadvallari shakllari. Loyihalar haqidagi axborotlarni mukammal o'rganish.

Davlat investitsiya dasturi monitoringini amalga oshirishda ishtirok etuvchi vazirlik va muassasalarning vazifalari

Davlat investitsiya dasturi monitoringini nazorat qiluvchi organlar. Davlat investitsiya dasturini moliyalashtirishda ishtirok etuvchi vazirlik va muassasalarning vazifalari. Davlat investitsiya dasturining amalga oshirilishini nazorat etuvchi muassasalar faoliyati.

O'zbekiston Respublikasi davlat investitsiya dasturi monitoringini olib borish tartibi va loyihalar monitoringi jarayoni

Davlat investitsiya dasturining balansligini ta'minlash. Kapital qo'yilmalar prognozi. Ustuvor investitsiya takliflari ro'yxati. Dasturni amalga oshirish va monitoringini olib borish tartiblari. Loyihalarni baholash va nazorat qilish mezonlari. Davlat investitsiya dasturi kodlari va sektorlarini turkumlash. Davlat investitsiya dasturi jadvallari shakllari. Monitoringni amalga oshirish bosqichlari. Monitoring natijalarini ko'rib chiqish tartibi va tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish.

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA- NAMOIYISH MATERIALLARI, O'QUV FILMLARI VA BOSHAQA DIDAKTIK MATERIALLAR RO'YXATI

O'quv jarayonida ko'rgazmali vositalardan, slaydlar va jadvalardan foydalanish ko'zda tutilgan. Ayrim aniq masalalarni o'rganishta shaxsiy kompyuterlardan ham foydalanish tavsiya etiladi.

«Investitsiya dasturlari monitoringi» fanini o'rganishda magistrantlar amaliy yordam tariqasida vazirlik va idoralarning investitsiya dasturini tayyorlash uchun Vazirlar Mahkamasiga taqdim etgan takliflari ro'yxati hamda uni o'rganish bo'yicha amaliy materiallar bilan ta'minlanadi.

Magistrantlarga «Investitsiya dasturlari monitoringi» fanini o'rganishda turli axborot vositalaridan, shu jumladan, Internet tizimidagi quyidagi sayt va elektron pochtalardan foydalanish tavsiya etiladi:

<http://www.wisebuy.co.uk/>
<http://subscribe.ru>
<http://www.bimk.kiev.ua>
<http://tininfo.bigural.ru>
<http://www.bashkortostan.ru>
<http://vuirute.iessl.ru>
<http://tut.by>
<http://www.zelenograd2001.narod.ru>
<http://econsultant.ru>
<http://megapolis.kharkov.ua>
<http://www.rada.kiev.ua>
<http://alyona.nns.ru>

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, Moliya vazirligi, Markaziy bank, xorijiy investitsiyalar bo'yicha Agentlik, Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi va boshqa vazirlik hamda idoralarning amaliy materiallaridan, Toshkent davlat iqtisodiyot uiversiteti va Toshkent Moliya institutida tayyorlangan o'quv filmlar, didaktik materiallar va multimediya ilovalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

5. O'ZLASHTIRISH NAZORATI

Magistrantlarning fan bo'yicha o'zlashtirishlarini baholash semestr davomida muntazam ravvshda olib boriladi va joriy, oraliq hamda yakuniy baholash orqali amalga oshiriladi. Joriy va oraliq baholashga ajratilgan ballar miqdori o'quv rejasida fanga ajratilgan soatning 70 foizi, yakuniy baholash esa 30 foizi miqdorida belgilangan

«Investitsiyalar dasturlari monitoringi» fanidan magistrant to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball 54 ga teng bo'lib, shundan joriy baholashga 12,6, oraliq baholashga 25,2, yakuniy baholashga 16,2 ball ajratiladi. Joriy va oraliq baholashga belgilangan ballar quyidagi mezonlar asosida qo'yiladi:

- magistrantning o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- amaliy (seminar) mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi;
- dolzarb mavzular bo'yicha referatlar yozishi;
- mustaqil ta'lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarishi;
- fan bo'yicha ko'rgazmali qurollarni tayyorlashi.

Tayanch iboralarga asoslangan yozma ishni o'tkazish tartibi "Reyting tizimini yakuniy baholash bosqichida "Yozma ish" usulini tadbqiq etish bo'yicha namunaviy Nizom" bilan belgilanadi. Semestr davomida fanlar bo'yicha to'plangan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

86 - 100 foizgacha (46,4 balldan 54 ballgacha) -"a'lo";
71 - 85 foizgacha (38,3 balldan 46,3 ballgacha)-"yaxshi";
55 - 70 foizgacha (29,7 balldan 38,2 ballgacha) -"qoniqarli";
55 foizdan kam (0 dan 29,6 ballgacha) -"qoniqarsiz".

6. ADABIYO TLAR Asosiy adabiyotlar

3. O'zbekistan Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida» gi Qonuni, 1998. 30 dekabr.
4. O'zbekistan Respublikasining «Chet et investitsiyalari to'g'risida» gi Konuni.//Xalk, so'zi 1998. 20 may.
5. O'zbekistan Respublikasining «Chet et investorlarning xuquqlarini ximoya qilish chora-tadbirlari va uning kafolatlari to'g'risida» gi Qonuni. //Xalq so'zi 1998. 21 may.
6. Karimov I.A. O'zbekistan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - T.: O'zbekiston, 1995.
7. Karimov I.A. O'zbekistan XXI asrga intilmoqda. - T.: O'zbekiston, 1995.
8. Karimov I.A. 2001 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunllari, iqtisodiy islohotlarning borishini baholash hamda 2002 yilgi vazifalarga bagishlangan ma'ruzasi. Vazirlar Mahkamaeining yig'ilishida so'zlagan nutqi. //Xalq so'zi, 2002. 15 fevral.
9. Ukaz Prezidenta Respubliki O'zbekistan «O dopolnitelnix merax po stimulirovaniyu eksporta produktsii, proizvodimoy predpriyatiami s inostrannimi investitsiyami» ot 26 avgusta 1997 goda.//Finansovoe zakonodatelstvo Respubliki O'zbekistan, № 11 — T., 1997.
10. Abdullaeva Sh. 3. Pul, kredit va banklar. - T.: Moliya, 2000.
11. Abdullaeva Sh. 3. Bank risklari va kreditlash. - T.: Moliya. 2002.
12. Angelidi M.S., Karimov N.G.. Analiz investitsionnix proektov: Uchebnoe posobie- T.: TFI 2000.
13. Abryutina M.S., Gracheva A.V. Analiz finansovo-ekonomicheskoy deyatelnosti predpriyatii: Uchebno-prakticheskoe posobie.- M.: Izd-vo Delo i Servis, 2001.
14. Berens V., Xavranek P.M. Rukovodstvo po otsenke effektivnosti investitsiy. - M.: INFRA -M, 1995.
15. Finansoviy analiz: Upravlenie kapitalom. Vibor investitsiy. Analiz otchetnosti. - M.: Finansi i statistika, 1996.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Rezyume rukovodyashchix printsipov dlya konsultativnix firm, privilekaemix YuNIDO dlya podgotovki predvaritel'nix issledovaniy i texniko-ekonomicheskix obosnovaniy. OON po promishlennomu razvitiyu. Podgotovleno Sektorom texniko-ekonomicheskix obosnovaniy, Slujbi investirovaniya, Otdel sodeystviya investirovaniyu i ispolzovaniyu texnologii. Mart 1994.
 2. Gitman L. Dj, Djonk M.D. Osnovi investirovaniya. Per. s angl. - M.: Delo, 1997.
 3. Kovalev V.V. Metodi otsenki investitsionnix proektov - M.: Finansi i statistika, 1998.
 4. Kurs ekonomiki: Uchebnik/ Pod red. B.A. Rayzberga. -M.: INFRA-M, 1997.
 5. Finansi i upravlenie predpriyatiem/ Pod red. A.M. Kovalevoy. - M.: Finansi i statistika, 1995.
- Finansoviy menedjment: teoriya i praktika: Uchebnik/Pod red. E.S. Stoyanovoy. - M.: Perspektiva, 1996.